# Qoraqalpog‘iston Respublikasida oliy ta’lim tizimining asosiy ko‘rsatkichlari (2020/2021- o‘quv yili boshiga)



**Ma’lumot uchun:**
Oliy ta’lim – umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negiziga shakllanadi hamda 2 bosqichga ega; - Bakalavriat – mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta’lim muddati kamida 4 yil davom etadigan tayanch oliy ta’limdir; - Magistratura – aniq mutaxassislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta’lim muddati kamida 2 yil davom etadigan oliy ta’limdir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2020- yilning 1- noyabr holatiga 9 ta oliy ta’lim muassasalari faoliyat yuritmoqda, ulardan 6 tasi filiallar. 2020/2021- o‘quv yili boshiga oily ta’lim muassasalarida 35487 nafar talaba ta’lim olmoqda, ulardan davlat grantlari asosida 7458 nafari ta’lim olmoqda. Jami talabalar sonidan kunduzgi bo‘limda 27892 nafar, kechki bo‘limda 346 nafar, sirtqi bo‘limda esa 7249 nafar talabalar tahsil olmoqda.

## Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalarning jinsi bo‘yicha taqsimlanishi, % da




2020/2021- o‘quv yili boshiga oliy ta’lim muassasalaridagi jami talabalardan 50,7 foizini 17998 nafar qizlar tashkil etadi. Ulardan talaba qizlari soni kunduzgi bo‘limda 13883 nafari, kechki bo‘limda 132 nafari, sirtqi bo‘limda esa 3983 nafari tahsil oladi.

## Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan jami talabalarning yoshi bo‘yicha taqsimlanishi, kishida

| | Jami | shundan : | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 17 yosh va undan kichik | 18 yosh | 19 yosh | 20 yosh | 21 yosh | 22 yosh | 23 yosh | 24 yosh | 25 yosh va undan katta |
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | **35487** | **795** | **2563** | **3221** | **4524** | **3956** | **3871** | **3539** | **3157** | **9861** |

## Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan jami talabalarning o‘qitish tillari bo‘yicha taqsimlanishi, % da

| | |
|---|---|
| Qoraqalpoq | 58,4 % |
| O‘zbek | 31,9 % |
| Rus | 8,2 % |
| Qozoq | 0,8 % |
| Turkman | 0,7 % |

Oliy ta’lim muassasalaridagi jami talabarni ta’lim olib boriladigan tillari bo‘yicha taqsimlanganda, qaraqalpoq tilida – 58,4 foiz, o‘zbek tilida – 31,9 foiz, rus tilida – 8,2 foiz, qozoq tilida – 0,8 foiz, turkman tilida ta’lim berilayotgan talabalarning ulushi – 0,7 foizni tashkil etadi.

## Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni, kishi (2020/2021- o‘quv yili boshiga)




2020/2021- o‘quv yili boshiga oliy ta’lim muassasalarida jami 35487 nafar talaba tahsil olayotgan bo‘lib, ulardan 17998 nafari qizlar.



## Oliy ta’lim muassasalariga qabul qilingan talabalar soni, kishida (2020/2021- o‘quv yili boshiga)



**O‘gil bollar**
- 5249

**Jami qabul qilingan talabalar soni**
- 11232

**Qizlar**
- 5983

## 2020- yilda oliy ta’lim muassasalarini bitirgan talabalar soni, kishida



**O‘gil bollar**
- 3271

**Jami bitirgan talabalar soni**
- 5475

**Qizlar**
- 2204

## Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan jami talabalarning kurslar boyicha taqsimlanishi, kishida (2020/2021- o‘quv yili boshiga)

| | |
|---|---|
| 1-Kurs | 12001 |
| 2-Kurs | 10565 |
| 3-Kurs | 7354 |
| 4-Kurs | 5135 |
| 5-Kurs | 299 |
| 6-Kurs | 133 |

2020/2021- o‘quv yili boshiga oliy ta’lim muassasalarida jami 35487 nafar talaba tahsil olayotgan bo‘lib, ulardan 1-kursga qabul qilinganlar soni jami 12001 nafar, shunnan 454 nafari magistratura yunalishiga qabul qilingan.

## Oliy ta’lim muassasalaridagi bakalavriat bosqichining asosiy ko‘rsatkichlari, kishida

2020/2021- o‘quv yili boshiga oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatidagi talabalar soni 34544 nafardan iborat bo‘lib shunnan 50,6 foizini yaniy 17498 nafar qizlar tashkil etadi. Ularning 13383 nafari kunduzgi bo‘limda, qolgan 3983 nafari sirtqi bo‘limda va 132 nafari keshki bo‘limda ta’lim olmoqdalar.

Qabul qilindi -10996





Bitirdi - 5271

Yangi o‘quv yilida oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga jami 10996 nafar talaba qabul qilindi. Ularning 8433 nafari kunduzgi, 2345 nafari sirtqi, 218 nafari kechki bo‘lim talabalari hisoblanadilar.

2020- yilda bakalavriat bosqichini 5271 nafari talabalar tamomladilar. Ulardan 1412 nafari davlat granti bo‘yicha ta’lim olgan talabalar hisoblanadi. Bitiruvchi talabalarning 3018 nafar qizlardan iborat.

## Oliy ta’lim muassasalaridagi magistratura bosqichining asosiy ko‘rsatkichlari, kishida

2020/2021- o‘quv yili boshiga oily ta’lim muassasalarida magistratura bosqichida jami 943 nafar talabalar kunduzgi bo‘limda ta’lim olmoqdalar. Magistrlarning 432 nafari davlat granti bo‘yicha o‘qimoqdalar. Jami magisrtatura bosqichidagi talabalarning 500 (53,0 %) nafari qizlardan iborat.

Qabul qilindi - 454





Bitirdi - 204

Yangi o‘quv yilida magistratura bosqichiga 454 nafar talabalar qabul qilindi. Ulardan 248 nafari, yani davlat granti bo‘yicha ta’lim olishga sazovor bo‘ldilar. Magistrlarning 236 nafari qizlar tashkil etadi.

2020- yilda 204 nafar talaba oliy ta’lim muassasalarida magistratura bosqichini bitirdilar. Ularning 68 nafari davlat granti bo‘yicha tamomladilar. Jami bitiruvchilarning 129 nafari qizlardan iborat.

# Oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilar tarkibi, kishida

2020/2021- o‘quv yili boshiga oliy ta’lim muassasalarida 1763 nafar professor-o‘qituvchilar faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ulardan 853 nafari (48,4 foizi) ayol o‘qituvchilar tashkil etadi. Jami professor-o‘qituvchilaridan fan doktor ilmiy darajaga ega bo‘lganlar soni 58 nafarni, fan nomzodlari -346 nafarni hamda falsafa doktorlari 115 nafarni , tashkil etmoqda, shuningdek ilmiy unvoni bo‘yicha professorlar 32 nafarni, dotsentlar - 254 nafarni tashkil etadi.

## Oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilar soni, kishida



# Oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari tarkibi, kishida

Respublikadagi oliy ta’lim muassasalarida 130 nafar pedagog-xodimlar informatika va kompyuter texnologiya fanidan ta’lim bermoqdalar. Ushbu muassasalarda 86 ta kompyuter sinflari mavjud bo‘lib, ular 1872 ta kompyuter, 9 ta videoproektor, 5 ta elektron va 5 ta interaktiv doskalar bilan jihozlangan.




**Ijtimoiy soha statistikasi bo‘limi**
**tel.: (61) 222-79-83**